

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITY NODAVLAT  
TA‘LIM MUASSASASI**

**Iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘yicha  
2024/2025-o‘quv yili uchun**

**ISH REJASI**

**Urganch - 2024**



**“TASDIQLAYMAN”**

**Urganch innovatsion universiteti rektori**

**M.Ishmuratov**

**“16” “sentabr” 2024-yil**

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish Urganch innovatsion universitetining “Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash” bo‘limi tuzilmasiga kiritilgan. Bo‘limning asosiy maqsadi iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashdan iborat bo‘lib universitetning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi, tayyorlash va bu borada yuksak iste’dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishdir. Talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish borasida iqtidorli talabalarni universitetning yetakchi professor-o‘qituvchilariga birlashtirish, innovatsion ilmiy-ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan to‘garaklar faoliyatini tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

**Iqtidorli talabalar bilan ishlash, shuningdek, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- iqtidorli talabalarni izlash va aniqlashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni intellektual salohiyatini aniqlab borish;
- iqtidorli talabalarni qobiliyati va qanday yo‘nalishga moyilligiga qarab maqsadli tayyorlashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalar uchun chet tili, axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni fundamental ilmiy tadqiqot ishlariga, ilmiy to‘garaklarga va ijodiy jamoalariga jalb qilish;
- iqtidorli talabalarni ilmiy va amaliy anjumanlarga, universitet, Respublika va xalqaro konferensiya, simpozium, olimpiada va tanlovlarda qatnashishlarini tashkil etish;
- iqtidorli talabalar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi va nomli Davlat stipendiyalariga, fan olimpiadalariga nomzodlarni tayyorlash, ularning sovrindor bo‘lishiga erishish;
- reytingi yuqori iqtidorli talabalar va ularning rahbarlarini moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash;
- iqtidorli talabalarni ilm-fan namoyondalari, universitet rahbarlari, tajribali professor-o‘qituvchilar bilan davra suhbatlarini tashkil etish;
- iqtidorli talabalar uchun ixtisosligi bo‘yicha kasb o‘yinlari va tanlovlarni tashkil etish;
- tarjimonlik yo‘nalishi bo‘yicha iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy to‘garaklarini tashkil etish va ilmiy-ijodiy izlanishlarga tegishli shart-sharoit yaratib berish;

-tanlangan yo'nalish bo'yicha qo'shimcha adabiyot va boshqa manbalar bilan iqtidorli talabalarni ta'minlash va ulardan foydalanish usullarini o'rgatish;

-iqtidorli talabalar uchun maxsus chuqurlashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqishni va ular asosida ta'lim berishni tashkil etish;










Yuqorida keltirilgan vazifalarni samarali amalga oshirish ishiga oliy o'quv yurtida barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda tyutorlar mas'ul hisoblanadi.

**URGANCH INNOVATION UNIVERSITY**  
**Iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha**  
**2024/2025-o'quv yili uchun**  
**ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Bajariladigan ishlar</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
1	Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda universitet Kengashi majlisi qarorlarini dastur sifatida qabul qilib, muntazam o'rganib borish va ilmiy-tadqiqot jarayoniga tadbiq etish.	Yil davomida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi
2	1-kursga o'qishga qabul qilingan talabalardan fakultet yo'nalishlari bo'yicha iqtidorlilarini aniqlash va ta'lim yo'nalishiga muvofiq ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli tayyorlashni tashkil etish	O'quv yili davomida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi
3	O'quv yili davomida faoliyat olib boradigan to'garaklar nizomi, ish rejasi va a'zolari ro'yxatini tuzish hamda kafedralar bo'yicha professor o'qituvchilarni birlashtirish ishlarini amalga oshirish	Sentabr	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, fakultetdan tayinlangan mas'ullar, fakultet dekani, kafedra mudirlari, to'garak rahbarlari
4	Iqtidorli talabalar uchun "Chet tili" fanlari bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil qilish	Oktabr-may	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, to'garak rahbarlari

5	2024-2025 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi hamda nomdor Davlat stipendiyalari tanlovida qatnashuvchi talabalar bilan suhbat o'tkazish	Oktabr-noyabr	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, fakultet dekani, kafedra mudirlari.
6	Universitet iqtidorli talabalar bilan ilmiy maqola va tezislarni yozish, turli jurnal hamda ilmiy-amaliy anjumanlarda ilmiy ishlarini chop etishga yordam berish va mazkur tadbirlarda faol ishtirok etishlari to'g'risida davra suhbatlari tashkil etish.	Dekabr-yanvar	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, fakultet dekani, kafedra mudirlari.
7	Universitet iqtidorli yoshlari tomonidan erishilgan yutuqlarni OAV hamda mahalliy matbuotlarda yoritib borish.	Yil davomida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, matbuot kotibi
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi hamda nomdor Davlat stipendiyalariga nomzod iqtidorli talabalarni 1-bosqich imtihonini o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish.	May-iyun	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi fakutet dekani, kafedra mudirlari.
9	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi hamda nomdor Davlat stipendiyalariga nomzod iqtidorli talabalarni 2-bosqich sinoviga tayyorlash va universitet Kengashi muhokamasiga taqdim etish.	Iyun	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, hay'at a'zolari
10	Universitet Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi hamda nomdor Davlat stipendiyalariga tavsiya etilgan iqtidorli	Avgust	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy

	talabalarning hujjatlarini talab darajasida tayyorlab, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish.		pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi
11	Iqtidorli yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishida hamda kafedralar qoshida tashkil etilgan fan to'garaklarda doimiy ishtirokini ta'minlash.	O'quv yili davomida	Fakultet dekani, kafedra mudirlari, to'garak rahbarlari
12	Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-anjumanlar, tanlovlar va innovatsion ko'rgazmalar haqida iqtidorli talabalarni xabardor qilish hamda ishtirok etishida ko'maklashish masalasida maqsadli ishlash.	O'quv yili davomida	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, fakultet dekani, kafedra mudirlari.
13	Kafedralar qoshida tashkil qilingan to'garak rahbarlarining maqsadli ishlashini ta'minlash hamda hisobotlarini olish.	Har oyning oxirgi payshanbasi	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  PhD. M.Masharipov
2. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i  A.Abdullayev
3. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi mutaxassisi  S.Qo'shchanov
4. Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti dekani  PhD. B.Satimov
5. "O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrası mudiri  dots. Q.Olloyorov
6. "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası mudiri  dots. Ch.Sobirova
7. "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası mudiri  PhD. U.Maxmudov
8. Sport klubi raisi o'rinbosari  Sh.Xudayberganova
9. Ingliz tili to'garak rahbari  L.Maksudova